

LEGALTECH VA HUQUQIY RISKLARNI BOSHQARISH

¹**Toxirova Diyora Voxid qizi**

¹Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

²**Javoxir Eshonqulov**

Ilmiy rahbar,

²Toshkent davlat yuridik universiteti

Kiber huquq kafedrası o'qituvchisi

javoxireshonqulov0724@gmail.com

Annotatsiya: LegalTech va huquqiy riskarni boshqarishdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Bunda huquqiy riskning o'ziga xos xususiyati, turlari, chegaralari, huquqiy asoslari bo'yicha tafsilotlar beradi va LegalTechni boshqarishdagi ahamiyati. Ya'ni bunda mamlakatimizda LegalTech bilan birga huquqiy risklarni oldini olish va ularni bartaraf etish, barqarorlikni ta'minlash, muammolarni topish va hal qilish, alohida yo'nalishlarini strategik va taktik boshqaruv qarorlarining samaradirligini baholash va rivojlanish usullarini o'zlashtirishni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: LegalTech, texnologiya, huquqiy risk, huquqiy boshqaruv.

LEGALTECH AND LEGAL RISK MANAGEMENT

¹**Tokhirova Diyora Vokhid kizi**

¹Student of Tashkent State University of Law

²**Javakhir Eshankulov**

²Scientific supervisor,

Tashkent State University of Law

Teacher of the Department of Cyber Law

javaxireshonkulov0724@gmail.com

Abstract: Discusses LegalTech and its importance in legal risk management. It provides details on the nature, types, limits, legal basis of legal risk and its importance in managing LegalTech. That is, together with LegalTech in our country, we will prevent and eliminate legal risks, ensure stability, find and solve problems, evaluate the effectiveness of strategic and tactical management

decisions in specific directions, and ensure the development of development methods analyzes its characteristics.

Keywords: LegalTech, technology, legal risk, legal management.

LEGALTECH И УПРАВЛЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКИМИ РИСКАМИ

¹Тохирова Диёра Вохид кизи

¹Студент Ташкентского государственного юридического университета

²Джавахир Эшанкулов

²Научный руководитель,

Ташкентский государственный юридический университет

Преподаватель кафедры киберправа

javaxireshonkulov0724@gmail.com

Аннотация: Обсуждается LegalTech и его значение в управлении юридическими рисками. В этом предоставляет подробную информацию о природе, типах, ограничениях, правовой базе юридического риска и его важности в управлении LegalTech. То есть вместе с LegalTech в нашей стране необходимо предотвращать и устранять юридические риски, обеспечивать стабильность, находить и решать проблемы, оценивать эффективность стратегических и тактических управленческих решений по конкретным направлениям, обеспечивать владение методами анализа развития его характеристики.

Ключевые слова: LegalTech, технология, юридический риск, правовой менеджмент.

I. Kirish

Bilamizki, XXI asr axborot texnologiyalari asri hisoblanadi va bu asrda texnologiya va internet jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda hech bir inson o'z hayotini internetsiz va mobil aloqalarsiz tasavvur qila olmaydi, ayniqsa, bizning kelajagimiz bo'lmish texnologiya asri yoshlari. Jahon tajribasidan
SJIF: 5.051

ma'lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mehnat, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etishi shartlarini o'zgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi. Har xil axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan sistemalar va ma'lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat mudofaasini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib qoladi. Zamonaviy tashkilotlar keng miqyosdagi tashkiliy muammolarni hal qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan: ichki muhitda aloqa kanallarini qurish uchun ham, tashqi aloqa vositasi sifatida ham faol foydalanmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar maxsus virtual makonni yaratishga imkon bermoqda. Shuningdek zamonaviy dunyoda texnologiya hayotimizning barcha jabhalariga kirib bormoqda va huquqshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas. Huquq sohasiga ham yangi yuridik texnologiyalar va IT-xizmatlar (Information Technology) kirmoqda va bu "LegalTech" deb nomlanadi ayni yuridik texnologiya huquqshunoslik amaliyotida qo'llanadigan dasturiy ta'minot va yuridik mutaxassislariga yuqori sifatli yuridik xizmatlar ko'rsatishga ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda yordam beradigan raqamli vositalarni o'z ichiga olib kelmoqda balki hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoq ham tashkilot ichidagi psixologik iqlimni shakillantirish vositasiga aylanib bormoqda.

Aynan ushbu maqola LegaTech va huquqiy risklarni boshqarish bo'yicha umumiy tafsilotlar hamda nazariy ma'lumotlar beradi shuningdek, amaliyotda qo'llashda balki, ilmiy bilimlarni hayotga tatbiq etishda ko'maklashadi. Shuning uchun birinchi navbatda, LegalTech va huquqiy risklarni

boshqarish tushunchalariga alohida to'xtalib o'tish lozim. LegalTech o'z-o'ziga huquqiy xizmat ko'rsatish balki huquqshunoslar ishini raqamlashtirish va yuridik xizmat ko'rsatishlarini yengillashtirish uchun mo'ljallangan kasbiy yuridik faoliyat.

Endi huquqiy risklarni boshqarishga o'tamiz. Huquqiy risklarni boshqarish ya'ni risklarni oldini olishning nazariy asoslarini mamlakat darajasida o'rgatish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish uslublari va vositalarini tushuntirish, risk darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib tahlil qilish va baholash, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish hisoblanadi. Bundan tashqari, risklarni boshqarish muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, imiy izlanuvchilar va boshqalar hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi soha xodimlari ham foydalanishi mumkin. Ushbu maqola risklarni boshqarish bilan bog'liq muammolar, masalalar va ularni joriy etish uchun imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi degan fikrdamiz. Shuningdek, risk bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni tahlil qila olishi, bu borada taklif va tafsiyalar ishlab chiqish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi va turli iqtisodiy muammolarning ahamiyatini, ya'ni ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan siyosatning ijtimoiy ta'sirini tanqidiy baholay olish imkoniyatlarini jalb qilishga yordam beradi va umumiy tafsilotlar haqida tushunchalar beradi.

II. Metodologiya

Ushbu maqolada, biz LegalTech ya'ni yuridik xizmat bu huquqiy amaliyotni optimallashtirish, samaradorligini oshirish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishga yordam berayotganligini hozirgi kunda shu xizmatga talab tobora ortib borayotgaligi jadal suratla ila rivojlanayotganligi ko'rsatish mumkin. Birinchi SJIF: 5.051

navbatda, LegalTech haqida soʻz boradi. LegalTech katta tarmoqli sohalarni oʻz ichiga oladi, yaʼni huquqiy risklarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. LegalTech va huquqiy risklarni boshqarish mohiyatlarini yetarlicha anglab yetish uchun badiiy va ilmiy maqola va manbalarga murojaat qilingan.

Riskning xuquqiy chegaralari risk turlari toʻgʻrisida gapirganimizda, birinchi navbatda(asosiy eʼtiborni alohida holda vujudga kelish xususiyati va imkoniyatlariga qaratib) xalq xoʻjaligi riski va tashkilot darajasidagi riskni mos kelishi zarurligini qayd etgan edik. Bu yerda biz birinchi navbatda bu ikki turdagi riskni taʼsir etish chegaralari va mavjud farqlanishlar belgilovchi omillarni, asossiz risk zararli ekanligini, hamda tajribaga tayanmay inkor etilgan risk ham oʻta zarar ekanligini koʻrsatish uchun alohida-alohida ajratamiz. Riskga tayanib qabul qilingan qarorlar qabul qilinishi bir muhim obyektiv mezon yaʼni xoʻjalik rahbari qarorlar qabul qilishda qanday chegaradagi riskga borish mumkin degan muhim obyektiv mezonga bogʻlik boʻladi. Bu masala kirish qismida qayd etganimizdek, iqtisodiy va huquqiy (fuqarolik sohasi kabi, jinoyat huquqi buyicha ham) jihatlari, holat va oqibatlarga ega.

III. Natijalar.

Mazkur maqolani tayyorlashda LegalTechda qoʻllanilgan huquqiy risklarni boshqarishning qanday ahamiyatga ega ekanligi oʻrganildi. Bundan tashqari, LegalTech yuridik sohada balki yuridik xizmatdan foydalanishning eng oson yoʻli ekanligi yana bir bor taʼkidlab oʻtildi va har taraflama qulay ekanligi aniqlandi. Chunki har bir inson oʻz huquq va erkinliklarini bilib olishi, poymol etilishini oldini olishi va aholining huquqiy madaniyatini oshirish uchun samarali yordam berishga xizmat koʻrsatadi. Ulardan Lex.uz, Sud.uz, Yurxizmat.uz, Regulation.gov.uz, project.gov.uz, E-huquqshunos, E-qaror,

ContractExpress, ROSS, Casetext, eBrevia, Kira Systems, LegalZoom, va boshqalar. Ushbu platformalar keng qamrovli onlayn huquqiy xizmatlar platformasi hisoblanadi.

Bular:

LexUz- eng katta O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi 304-sonli "Qonun hujjatlarini turkumlashni takomillashtirish va huquqiy axborotlarni tarqatishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini bajarish maqsadida yaratildi.

Sud.uz- sud xizmatlaridan foydalanishning innovatsion, ishonchli va qulay yo'l bunda barcha sud ixtisosliklari bo'yicha interaktiv xizmatlar majmuyi haqida ma'lumot beradi.

Project.gov.uz-bu portal 2019-yil 1-yanvardan pilot loyihasi sifatida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi sifatida sinov tariqasida ishga tushirilgan.

Regulation.gov.uz-bu portalda esa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokama qilinadi. Mazkur portal modernizatsiya qilingan.

"E-huquqshunos" elektron tizimi 2021-yil 1-oktabrdan davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha ma'lumot va jarayonlarni to'liq elektron ravishda yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich jarayoni joriy etildi.

Shuningdek, Lex.uz eng katta O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari milliy bazasi sifatida yuqorida ko'rib chiqdik va foydalanuvchilar soni 20 mingdan ko'proqni tashkil etmoqda bu umumiy soni o'tgan yilga nisbatan 17.22 % ortgani qayd etilmoqda.

1. Shartnomalarni avtomatik tuzish vositalari:

Misollar:

1. ContractExpress--bu shartnomalarni avtomatik ravishda yaratish, tahrirlash va boshqarish imkonini beruvchi bulutli platforma. U standart shartnomalarda o'zgarishlar kiritish, klouzalar qo'shish va olib tashlash hamda shartnoma shablonlarini yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi. Undan ko'pincha katta hajmdagi shartnomalarni boshqarishda, masalan, ijara shartnomalari, xarid shartnomalari va litsenziya kelishuvlarida foydalaniladi.

2. DocuSign--bu elektron imzo va hujjat almashinuvi platformasi bo'lib u shartnomalarni onlayn tuzish, imzolash va yuborishni qo'llab-quvvatlaydi hamda imzolanganlik holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. DocuSign ko'pincha masofaviy bitimar, masalan, sotuv shartnomalari, pudrat shartnomalari va konfidentsiallik kelishuvlarida qo'llaniladi.

2. Huquqiy tadqiqot uchun platformalar:

1. ROSS--bu huquqshunoslarga tezkor va aniq huquqiy tahlil taqdim etish uchun minglab sudlov hujjatlari va huquqiy manbalarni tahlil qiladi. ROSS odatda murakkab huquqiy masalalarni tadqiq qilishda, sudlov strategiyasini ishlab chiqishda va sud jarayonlariga tayyorgarlik ko'rishda ishlatiladi.

2. Casetext--bu sud qarorlari, qonunlar va ilmiy maqolalarni tahlil qilish uchun tabiiy tilni qayta ishlash va semantik qidiruvdan foydalanadi. Casetext ko'pincha huquqiy pretsedentlar, qonunchilik hujjatlari va huquqiy nazariyalarni tadqiq qilishda foydalaniladi.

3. Huquqiy hujjatlarni tahlil qilish uchn tabiiy tilni qayta ishlash vositalari:

1. eBrevia—bu muhim ma'lumotlarni ajratib olish, xatarlarni aniqlash va hujjatlarni taqqoslash imkoniyatlarini taqdim etadi. eBrevia ko'pincha yirik hajmdagi huquqiy hujjatlar to'plamini, masalan, korporativ hujjatlar, moliyaviy hisobotlar va intellektual mulk litsenziyalarini ko'rib chiqish uchun ishlatiladi.

2. Kira Systems—bu ko'pincha investitsiyalar, qo'shilish va yutib olishlar mulkchilik huquqlari va boshqa murakkab yuridik bitmlar bilan bog'liq hujjatlarni tekshirish uchun ishlatiladi.

4. Mijozlar bilan o'zaro aloqalar uchun onlayn huquqiy xizmat platformalari:

1. LegalZoom—bu jismoniy va yuridik shaxslarga onlayn ravishda turli huquqiy xizmatlar va resurslar taqdim etuvchi platforma. U vasiyatnomalar, mulk huquqlari, biznesni ro'yxatdan o'tkazish va boshqalar kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi. LegalZoom mijozlar uchun qulay va arzon huquqiy yechimlarni taklif etish orqali an'anaviy huquqiy amaliyotlarga alternativ sifatida xizmat qiladi.

2. Rocket Lawyer—bu jismoniy va yuridik shaxslar uchun keng qamrovli onlayn huquqiy xizmatlar platformasi. U shartnomalar yaratish, huquqiy hujjatlar tuzish, startup maslahat xizmatlari va boshqalarni taklif etadi. Rocket Lawyer shuningdek, obunachilarga cheklangan miqdorda bepul huquqiy maslahatlar badi. U ko'pincha kichik biznes egalari, tadbirkorlar va jismoniy shaxslar tomonidan kundalik huquqiy ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

IV. Muhokama

Dastlab, LegalTech tushunchasiga yana bir bor ta'kidlab o'tamiz. LegalTech yuridik xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan onlayn platformalar yig'indisi hisoblanadi. LegalTech onlayn yuridik xizmatlaridan foydalanish uchun to'lov alohida ruxsat talab etilmaydi(ba'zi platformalarda). Hozirgi zamonaviy dunyoda ushbu onlayn yuridik xizmatlarning turli xil platforma dasturlari mavjud va to'la imkoniyatlarga boy hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, bular onlayn yuridik xizmat dasturidan erkin foydalanish, tahlil qilish, maslahat berish imkonini beruvchi platformalar hisoblanadi.

Quyida LegalTechning afzalliklari:

- Samaradorlikni oshiradi: LegalTech vositalari huquqshunoslarning ish unumdorligini oshirishga yordam beradi, chunki ular ko'p vaqt talab qiladigan va takrorlanadigan vazifalarni avtomatlashtiradi.
- Xarajatlarni kamaytirish: Texnologiyadan foydalanish orqali huquqiy xizmatlar narxini pasaytirishi mumkin, bu esa mijozlar uchun foydalidir.
- Aniqlikni oshirish: LegalTech vositalari xatolarni kamaytiradi va huquqiy hujjatlarning sifatini oshiradi.
- Mijolarga qulaylik yaratish: Onlayn platformalar va mobil ilovalar mijozlarga o'zlari uchun qulay vaqtda va joyda huquqiy xizmatlarga kirish imkonini beradi.

Va LegalTech ham quyidagi kamchiliklarga ega:

- Birinchidan, muayyan dasturlar va chatbotlardan foydalanib, siz o'zingizni osonlik bilan va bir necha daqiqada hujjat tuzishingiz, sudga da'vo qilishingiz va shu bilan advokatga borishdan qochishingiz mumkin va texnik nosozliklar.

●Ikkinchidan, muayyan huquqiy muammoni hal qilish uchun advokatga borish shart emas, chunki bu onlayn xizmatlar orqali mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bu pulni sezilarli darajada tejash imkonini beradi, chunki o'z biznesining professionaliga murojaat qilish juda qimmat shuningdek, ya'ni bunda asosiy ma'lumotlarni to'liq olish murakkab vaziyat.

●Uchinchidan, bu texnologik yechimlar, shuningdek, inson omilini istisno qilmaydigan odamlar tomonidan yaratiladi, bu esa o'z navbatida xato va noto'g'ri ma'lumotlarga olib keladi.

Nima uchun huquqshunoslar uchun muhim?

◆ 1. Raqobatbardoshlikni oshirish: LegalTech vositalaridan foydalanish huquqshunoslarni o'z sohasida raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi.

◆ 2. Mijozlarning o'sib borayotgan talablariga javob berish: Mijozlar tezkor, samarali va arzon huquqiy xizmatlarni kutishadi. LegalTech bu talablarga javob berishga yordam beradi.

◆ 3. Yangi imkoniyatlarni kashf etish: Texnologiya huquqshunoslarni innovatsion xizmatlarni taklif qilish va yangi bozorlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Qaror qabul qilish jarayonida ekspertlarni tanlash, zarur informatsiyalarni to'plash va qayta ishlash, kabi masalalarning zarur vakolatiga erishilish baholash mezonlari muammolari va real nuqtai nazarni yuzaga keltiradi. Yuqorida qayd etilganlar javobgarlikga tortish va ma'suliyatni zimmaga olish nuqtai nazaridan baholanib va ko'rsatiluvchi talablarni keltirib chiqaradi. Lekin ular quyidagi aniq miqdoriy bahoga jalb etiluvchi muhim omillar: risk bilan bog'liq qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratuvchi vaziyat, rahbar didi, qaror va tanlovni belgilovchi rahbarning shaxsi moddiy ahvoli, uning vazifasi, bevosita

xodimlarni to'plash bo'yicha ho'jalik rahbarlarning huquq va imkoniyati va x.z) bilan to'ldirilishi lozim.

Risk bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish- bu huquq nuqtai nazaridan ikki tomonlama qarab chiqiluvchi masaladir. Bir tomondan-u o'ta muhim fuqarolik huquqiy javobgarlik holati, ikkinchidan u vakolat to'g'risidagi masaladir. Umuman mahsus yuridik adabiyotlarda risk bilan bog'liq qarorlar qabul qilish va bunday qarorlar uchun javobgarlik ma'suliyatini huquqiy tartibga solish, tartibga soluvchi iqtisodiy manfaatdor ho'jalik obyektlari bo'limida qarab chiqiladi. Bu bo'limga hujalik hisobi sharoitida ko'rilgan zararlarni qoplash masalalari ham kiritilgan, lekin ho'jalik faoliyatini idavlat tomonidan tartibga solish natijasida yuqori tashkilotlar rejalarini barbod etgan iuchun qo'llaniluvchi jarimalar bundan mustasno. Huquqiy riski bilan bog'liq xarakatlar uchun javobgarlik masalasini biz fuqarolik huquqi pozitsiyasidan turib tadqiq qilamiz. Bu uchun birinchi navbatda riskning huquqiy tushunchasiga ta'rif berishimiz lozim. Yuqorida keltirilgan riskni iqtisodiy va matematik tavsifi faqatgina huquqiy ta'rif uchun asos bo'la oladi xolos. Riskning zamonaviy huquqiy tushunchalarida qaror qabul qiluvchi shaxs xatti-harakatidagi noaniq omillarni mavjudligi ifodalanadi, bu esa huquqiy adabiyotlarda xukmron bo'lgan riskka salbiy munosabatga olib keladi: huquq nuqtai nazaridan risk, shartnoma bo'yicha zararni qoplash yoki boshqa ma'suliyat asoslarda tugagan joydan boshlanadi, riskdan kiriladigan zarar tushunchasini qarab chiqa rekanmiz, uni havf-xatar soluvchi vaziyat oqibatlariga qiyoslash mumkin. Havf-xatar soluvchi holatni biz qandaydir yo'qotishga imkon yaratuvchi holat-deb ta'riflaymiz. Amalda bunday holatlarning xammasi ham zararli oqibat bilan tugamaydi. Bunday zararning qandaydir bir ulushi uchun hech

kim javobgar bo'lmaydi. Shunga o'xshash vaziyat risk holatida ham sodir bo'ladi. Shunday qilib, keying holatiga nisbatan quyidagi muammo yuzaga keladi:

- kishi zarar ko'rsa-yu, hech qanday qonunga asosan keltirilgan zararni hech kimdan undirib bo'lmasa va u uchun hech kimni moddiy javobgarlikka tortilmasa;

- risk manbai boshqacha so'z bilan aytganda ko'rilgan zarar manbai (sababi)-bu xo'jalik rahbari tomonidan xo'jalik faoliyatini kelajagi uchun qilingan hisob-kitoblarni amalga oshmay qolishi oqibatida ko'riladigan zarar miqdori yoki daromad ololmaslik, olganda ham juda oz miqdorda foyda ko'rishga aytiladi. Zarar xo'jasizlik oqibatida ham sodir bo'lishi mumkin lekin uni aniqlashning aniq chegarasi mavjud emas.

Olingan natijalar birgina alohida qaror oqibati bo'lmay, balki barcha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat natijasi bo'lishi mumkin. Shunday vaziyat ham bo'ladiki, uning natijasida avtomatik tarzda olinadigan foydaning kamayishi yoki qaror natijalari ijobiy bo'lsa daromad aniq o'sishi bilan bog'liq bo'ladi. Lekin bu, boshqacha xo'jalik huquqiy faoliyatlari "natijalari" uchun jinoiy va mehnat huquqi bo'yicha javobgarlikka tortishga asos yo'q degani emas. Agar lavozim yo'riqnomasi talablari buzilsa, rahbarning o'z lavozimiga noliyqligi, uquvsizligi, savodsizligi oqibatida o'tkazilgan bir tadbir, yoki qabul qilingan qaror moddiy, ma'naviy zarar keltirsa, yoki xodimni sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatsa, u rahbarni javobgarlikka tortilishi muqarrar.

Keyingi muhim va muammoni murakkablashtiruvchi muhim xususiyat- bu boshqaruv qarorlari oqibatida qoidaga ko'ra zarar ko'rilmaydiyu, qabul qilinmagan boshqa qaror oqibatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan natijaga nisbatan past ko'rsatkichga erishiladi. Qabul qilingan va qilinmagan qaror

natijasida ko‘rilgan zarar yoki olinmagan daromadni baholash shu qadar noaniqki, unda ko‘rilgan yaqqol namoyon bo‘lmay mavhum tavsifga ega bo‘lmaydi hamda uni qator hollarda pulda baholash imkoni bo‘lmaydi. Riskni huquqiy tartibga solish alohida ho‘jalik qarorlari oqibatida yuzaga keluvchi zararlarni qoplash uchun korxona o‘z daromadi hisobida rezerv fondini shakllantirish lozimligidan kelib chiqadi. Tashkilot keltirilgan zararni toki o‘z rezer fondi hisobidan qoplab turgan ekan xech qanday sanksiya to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Rezerv fondini asossiz ko‘p sarflab yuborish yuqori tashkilotlar aralashuvi kabi ma’lum sanksiyalarni qo‘llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Shunga o‘xshash bizda ham quyidagicha nuqtai nazar paydo bo‘ladi, ya’ni, korxona direktori rezerv fondi summasiga teng miqdordagi ko‘rilgan zarar summasi bilan bog‘liq riskka borishi mumkin, xolos. Rezerv fondi chegarasidan yuqori risk endi biz uchun ortiqcha bo‘ldi. Juda katta miqdordagi risk uchun ma’suliyatni rahbar vakolati doirasidan ortiq darajada mustaqil holda o‘z zimmasiga ololmaydi, chunki rezerv fondi o‘lchamidan katta zarar bilan bog‘liq riskka borish yuqori organ huquqiga kiradi. Sanksiya to‘g‘risidagi masalaga qaytar ekanmiz, shu narsani qayd etishimiz lozimki, hamma vaqt ham yuqor tashkilot korxona mulkiga yetkazilgan moddiy zararlarni yoki rezerv fondi ortiqcha sarflash uchun jazo chorasini qo‘llash shart emas. Jazo choralarini qo‘llash masalasida berilgan bahoga bog‘liq bo‘ladi. Agar tashkilot o‘z hisobidan yoki hech bo‘lmaganda bankdan olingan qisqa muddatli kredit hisobidan ko‘rilgan zarar (olinmagan daromad)ni qoplash imkoni bo‘lsa, u holda sanksiya qo‘llanmasligi mumkin. Tashkilot rejasida risk elementlari to‘g‘risidagi qaror o‘z ifodasini topishi zarur. Bu qaror yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlanmaydi, uning bajarilishi yuqori organ tomonidan nazoratga olinmaydi ammo uni rejaga kiritilishi unga

qonuniy tus berish va qabul qilingan bunda qaror natijasi uchun mas'uliyatni nazorat qilish maqsadini nazarda tutadi. Mobodo kutiladigan havf-xatar va ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar miqdori risk elementlariga oid qarorlar qabul qilish sohasi va vakolatidan yuqori bo'lsa, u holda yuqori tashkilot bilan kelishish zarur. Davlat bir qatorda tashkilot sohibi sifatida keltirilgan zarar uchun va risk uchn boshqaruv funksiyasini bajarib urgan director zimmasiga yuklatiladi. Qandaydir qabul qilingan qaror oqibatida ko'rilgan zarar voqea sodr bo'lgan zaxotiyoyq sezilmaydi. Uni aniqlash uchun uzoq muddatli tahlil talab etiladi. Qayd etib o'tganimizdek, risk bilan huquq va xo'jasozlik orasidagi aniq chegarani ko'rsatish qiyin.

V. Xulosa.

Axborot jamiyati sharoitida taraqqiyot hali ham to'xtamaydi. So'nggi paytlarda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jadal rivojlanib, uning ta'siri bilan ko'plab kasb-hunarlarni, shu jumladan huquqshunoslikka tegishli shaxslarni qamrab oldi. Ushbu hodisalar huquqiy faoliyat jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish uchun ishlab chiqilgan dasturlar va platformalardan tashkil topgan texnologik yechimlarni o'z ichiga olib kelmoqda ya'ni LegalTech huquqshunoslik sohasini tubdan o'zgartirmoqda va uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Huquqshunoslar uchun LegalTech vositalarini o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanish raqobatbardosh bo'lib qolish va mijozlarga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelajakda LegalTech yanada rivojlanish va huquqshunoslik amaliyotining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda. Shuningdek LegalTech inson tomonidan yaratilgan, boshqariladigan yuridik sohani raqamli texnologiyalar bilan qamrab oluvchi huquqiy xizmatlar platformasi hisoblanar ekan, shuningdek yuridik masalalarni raqamli

SJIF: 5.051

texnologiyalar yordamida yechishga qaratilgan yurisprudensiya va axborot texnologiyalari sohalari uyg'unligida hosil bo'lgan yo'nalish ekan. Huquqiy boshqaruv riski shunday qilib, boshqaruv qarorini qabul qilish jarayoni bu sikl bo'lib, u yerda biz avval qaysi sohada qaror qabul qilishimiz kerakligini aniqlashimiz, so'ngra jarayonda ishtirok etadigan tashkilotdagi odamlarga xabar berish va so'ngra natijani baholash va tegishli tuzatishlarni kiritishimiz lozim ekan. Shuningdek, noaniqlik va xavfni imkon qadar kamaytirish kerak. Bu ma'lumot to'plash orqali amalga oshirilgan ekan ya'ni bu ham vaqt talab qilar va yangi o'zgaruvchilar paydo bo'lish xavfini keltirib chiqarar ekan. Yaxshi tahlil samarali boshqaruv strategiyasining kalitidir. Ushbu qadamlar bizga xavf-xatar haqida to'liq tasavvur berishga va qayerga bor kuchimizni sarflashga imkon berar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar/References/Литература

1. "Risklarni boshqarish" Mart 28, 2022 <https://ebook.tsue.uz>
2. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/risklarni-boshqarish-EEg7dFXm&ved=2ahUKEwiBqMX46b-JAaXUZU1UIHYRKEyYQFnoECBQQAQ&usg=AOvVaw3iFhj6ke-PUoZXYqnAPowB>.
3. "Legal Tech" Aprel 16, 2024 <https://huquqburch.uz>
<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://huquqburch.uz/legal-tech-tushunchasi-va-ahamiyati/&ved=2ahUKEwjUnaGL7LJAaXZoFRAIHYPXLyMQFnoECBcQAQ&usg=AOvVaw31My8wIoTqpcOPpaCQaOly>.

4. “Legal Tech va huquqshunoslik sohasidagi texnologik inqilob” Aprel 4, 2024.
5. <https://civil.uz>.
6. “Tashkent Law” Aprel 9, 2021 <https://new.tashkentlawspring.uz>.
7. “Zamonaviy texnologiya” Dekabr 8, 2023.
8. <https://maqola.reandpub.uz>, <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://maqola.reandpub.uz/12971/&ved=2ahUKewjY0uT88b-JAxUqGhAIHRqRDg4QFnoECBkQAQ&usg=AOvVaw1Vvr4MPLwLYhy6ixqsQeL6>.
9. “КиберЛенинка” <https://cyberleninka.ru> ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYA VA INTERNETNING INSON ONGIGA TA’SIRI.
10. https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-texnologiya-va-internetning-inson-ongiga-tasiri&ved=2ahUKewjY0uT88b-JAxUqGhAIHRqRDg4QFnoECCEQAQ&usg=AOvVaw24j4QwZ_LV7ImXOnFGQC5.
11. ”Innova Science” Iyul 7, 2023 <https://conf.innovascience.uz>
Texnologiyaning hayotdagi o‘rni.
12. Karimjonova Laylo Abdumalik qizi, & Javoxir Eshonqulov. (2024).
LEGAL AND TECHNICAL ASPECTS OF PERSONAL DATA PROTECTION.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14231936>.
13. Eshonqulov, Javoxir. "SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH
YO‘LIDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK TAHLILI."

Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.11 Part 3 (2023): 47-52. 7.

14.Eshonkulov, J. (2024). Legal foundations for the application of artificial intelligence Technologies in the Sports Industry. American Journal of Education and Evaluation Studies, 1(7), 240-247. <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/320/287>.

15.Ruxshona, S., & Eshonkulov, J. (2024). KRIPTOVALYUTALARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI. Journal of new century innovations, 65(3), 142-146. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3724>.

16.Charos, M., & Eshonkulov, J. (2024). RAQAMLI BANK KARTALARIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY JIHATLARI. Journal of new century innovations, 65(3), 157-165. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3733>.

17.Eshonkulov, J. (2024). ELEKTRON DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI. Journal of new century innovations, 65(3), 131-141. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3720>.

18.Javoxir Eshonkulov 2024/7/3 BARQAROR RIVOJLANSH SHAROITIDA SUV RESURLARINI TEJASH VA ISROF QILISHNI OLDINI OLISHDA SUN'IIY INTELLEKTNING O'RNI International Conference on Legal Sciences Том 2 Номер No. 3 Страницы 59-69 <https://science-zone.org/index.php/conference/article/view/105/98>.

19.Usmonova, S., & Eshonkulov, J. (2024). HUQUQIY RISKLARNI BAHOLASHDA BIG DATA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Modern Science and Research, 3(11), 464-471. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3724>.

20.Orziqulov Elnur, and Javoxir Eshonqulov. 2024. “RAQAMLI PLATFORMALARDA FOYDALANUVCHILAR SHAXSIY MA’LUMOTLARINI HIMOYA QILISH”. Journal of New Century Innovations 65 (3): 166-72. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3738>.

21.Tirkasheva Umida, & Javoxir Eshonqulov. (2024). RAQAMLI PLATFORMALARDA REKLAMA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 58(4), 28-38. <https://scientific-jl.org/obr/article/view/3983>..

22.Ergashaliyeva Sevinch, & Javoxir Eshonqulov. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI LITSENZIYALASH . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 58(4), 9-18. <https://scientific-jl.org/obr/article/view/3981>.

23.Hafizov Diyorbek, & Javoxir Eshonqulov. (2024). ANALYSIS OF LEGAL DOCUMENTS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LEGAL ACTIVITY. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14231948>.

24.Tursunboyeva Dinora, & Javoxir Eshonqulov. (2024). MA’LUMOTLAR JOYLASHUVIGA OID YURISDIKSIYA MASALALARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 58(4), 19-27. <https://scientific-jl.org/obr/article/view/3982>.